

FUQAROLIK TARBIYASI

Sh.Turdiyeva

M. Olimjonova

G.Ikromova

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi

katta o'qituvchisi va kimyo yo'nalishi

202-guruh talabalari

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsadi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Fuqarolik ongini shakllantirish, yosh avlodda mas'uliyat, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy yondashuvlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda tarbiyaviy metodlar asosida o'quvchilarni ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida voyaga yetkazish masalalari ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: Fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik ong, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, shaxs kamoloti, pedagogik yondashuvlar, tarbiyaviy jarayon, ta'lim tizimi, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются сущность и цели гражданского воспитания, а также его роль в развитии общества. Освещаются процессы формирования гражданского сознания, ответственности, правовой культуры, патриотизма и социальной активности у молодёжи. Кроме того, рассматриваются теоретические и практические подходы к эффективной организации гражданского воспитания в образовательных учреждениях,

использование современных педагогических технологий и воспитательных методов для формирования у учащихся осознанной гражданской позиции.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Гражданское воспитание; гражданское сознание; правовая культура; патриотизм; социальная активность; развитие личности; педагогические подходы; воспитательный процесс; система образования; духовно-нравственное воспитание.

ANNOTATION: This article analyzes the essence and objectives of civic education, as well as its role in the development of society. It highlights the processes of forming civic consciousness, responsibility, legal culture, patriotism, and social activity among the younger generation. The article also examines theoretical and practical approaches to effectively organizing civic education in educational institutions, including the use of modern pedagogical technologies and instructional methods aimed at fostering students' conscious civic attitudes.

KEYWORDS: Civic education; civic consciousness; legal culture; patriotism; social activity; personal development; pedagogical approaches; educational process; education system; moral and ethical education.

Huquq va maiburiyatlarni anglaydigan fuqaroni tarbiyalash har qanday jamiyat ijtimoiy institutlarning vazifasidir. Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik tarbiyasi - bu davlat a'zosi uchun zarur sitatlarni, ya'ni siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat hamda vatanpararlik, millatlararo munosabatlardagi madaniyatni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlar tizimidir. Demak fuqarolik tarbiyasi — bu davlat a'zosi uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jaravon hisoblanadi.[1] Fuqarolik tarbiyasi - o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari uchun kurashuvchi fuqaro sifatida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi orqali shaxsning siyosiy va huquqiy madaniyati, unda vatanparvarlik va millatlararo munosabatlar shakllantiriladi. Fuqarolik tarbiyasi o'quvchilarga fuqaroning burch va majburiyatlarni,

huquqlarni to'g'ri sidagi bilimlarni asosida ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish maqsadini ifodalaydi. Pedagoglar tomonidan siyosat, fuqarolik, vatanparvarlik, huquq tushunchalarning mazmun-mohiyatni bilishliklarini yoshlar orasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishlarida yordam beradi. [2]

Fuqarolik-huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish, burchlarni bajarishga ma'sullik bilan yondashish, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yeturklik asosida muayyan davlarga mansublik.[3]

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlarini yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga qaratilgan jarayon. Fuqarolik – shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiyhuqukiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs F.ka ega bo'lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularning amalga oshirishini ta'minlash choralari ko'radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko'rsatadi. O'z navbatida, fuqarolar davlat qonunlari va qoidalarga so'zsiz rioya kiladilar, o'zlari uchun belgilangan majburiyatlarni bajaradilar. Bu huquq va majburiyatlar yig'indisi fuqaroning siyosiyhuquqiy maqomini tashkil etadi, fuqarolar ana shu maqom bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardish ajralib turadilar. Fuqarolik asosan 2 yo'l bilan qabul qilinadi; tug'ilganlik dalili asosida („filiatsiya“) va naturalizatsiya yo'li bilan.[4] Tug'ilish asosida Fuqarolikka qabul qilishda 2 xil qoida: „qon huquqi“ va „tuproq huquqi“ qoidasi qo'llanadi. „Qon huquqi“ deb nomlangan qoida shu davlatning fuqarolaridan tug'ilgan shaxsni fuqaro deb tan oladi (ayrim davlatlarda otaonasining biri tegishli F.ka egaligi yetarli). Kaysi davlat hududida bu shaxsning tug'ilganligi ahamiyatga ega emas. „Tuproq huquqi“ qoidasi, fuqaroligidan qat'i nazar, agarda shaxs mazkur davlat hududida tug'ilgan bo'lsa, unda o'sha shaxs fuqaro deb tan olinadi. Naturalizatsiya yo'li bilan Fuqarolikni qabul kilish mamlakatda yashab kelayotgan shaxsning Fuqarolikni olish to'g'risidagi iltimosi bilan bog'liqdir.[5]

O‘zbekistonda Fuqarolikning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-bobida hamda „O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida“gi qonun (1992-yil 2-iyul)da ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona Fuqarolik o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik tarbiyasi jamiyatning barqaror rivojlanishi va shaxsning ma’naviy-axloqiy yetukligi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada fuqarolik tarbiyasining asosiy tushunchalari, vazifalari va shakllanish yo‘llari tahlil qilindi. Fuqarolik tarbiyasi shaxsni jamiyat me’yorlariga, huquqiy qoidalariga hurmat ruhida tarbiyalash, mas’uliyat va huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, oilaviy tarbiya, maktab ta’limi, ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalari fuqarolik tarbiyasining samarali shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekani ko‘rsatildi.

Fuqarolik tarbiyasi nafaqat shaxsni yetuk fuqaroga aylantiradi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, har bir shaxs va jamiyat institutlari bu yo‘nalishda faol ish olib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni mustahkamlash”ga oid qarorlari va farmonlari, 2018–2023 yillar.
2. Axmedov, R. (2020). *Fuqarolik tarbiyasi asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. Qodirov, S. (2019). *Maktabda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish metodikasi*. Toshkent: Fan.
4. O‘ktamova, N. (2021). *Yoshlarni huquqiy ongga tarbiyalash*. Toshkent: Pedagogika.
5. UNESCO. (2015). *Education for Civic Responsibility*. Paris: UNESCO Publishing.